

KASHTACHILIK SAN'ATINING TARIXI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO'NALISHLARI TAHLILI ASOSIDA ZAMONAVIY AYOLLAR LIBOSI ESKIZINI ISHLAB CHIQISH

Feruza Sodiqova Abdulxay qizi

Namangan davlat texnika universiteti "Dizayn" kafedrasi o'qituvchisi. t.f.f.d., PhD

Nu'monova Barnoxon Mo'minjon qizi

1a-24 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kashtachilik san'atining shakllanish jarayoni, uning qadimiy sivilizatsiyalarda tutgan o'rni hamda Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududida rivojlanishi haqida ilmiy tahlil keltiriladi. Shuningdek, kashtachilikning zamonaviy dizayn, sanoat va texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi o'rganish asosida libos eskiz modeli tavsifa etilgan.*

Kalit so'zlar: *Kashtachilik, mato, zardo'zlik, ipakchilik, zardo'zlik.*

Kashtachilik — mato, charm yoki boshqa tagliklarni igna va ip yordamida bezash san'ati bo'lib, insoniyatning eng qadimiy hunarmandchilik turlaridan biridir. Kashtachilik insoniyat tarixidagi eng qadimiy amaliy san'at turlaridan biri bo'lib, u nafaqat estetik vazifani, balki ma'naviy, marosimiy va madaniy ahamiyatni ham o'zida mujassam etadi. Arxeologik izlanishlar natijasida kashtachilikka oid dastlabki namunalarning miloddan avvalgi 30–40 ming yilliklarga tegishli ekanligi aniqlangan. Vaqt o'tishi bilan kashtachilik texnikalari rivojlandi, milliy maktablar shakllandi va bu san'at xalqning turmush tarziga chuqur singdi.

Qadimgi insonlar dastlab uy-ro'zg'or buyumlari hamda kiyimlarni mustahkamlash maqsadida igna va ipdan foydalanishni boshlagan. Ushbu amaliy ko'nikmalar keyinchalik bezak kashtachiligiga aylangan. Misr, Xitoy, Hindiston, Eron kabi sivilizatsiyalarda kashta diniy liboslar, saroy kiyimlari, to'qimachilik mahsulotlarini bezashda keng qo'llanilgan. Ayniqsa, Xitoy ipak kashtachiligi va Hindistonning zardo'zlik san'ati butun dunyoga mashhur bo'lgan.

O'zbekiston hududida kashtachilikning shakllanishi. Markaziy Osiyo xalqlari orasida kashtachilik eng qadimdan rivojlangan. O'zbekiston hududidagi kashtalar o'zining rang-barangligi, naqshlarning ramziy ma'nosi va texnik murakkabligi bilan ajralib turadi. Har bir viloyatda o'z maktabi shakllangan bo'lib, ularning har biri xalqning dunyoqarashi, iqlim sharoiti va etnik an'analari bilan bog'liq.

Buxoro maktabi. Buxoro kashtachiligi asosan zardo'zlik bilan mashhur. Oltin va kumush iplar bilan bezatilgan takiya, nimcha, salla, to'y liboslari Buxoro hunarmandchiligining yuksak darajasidan dalolat beradi.



1-rasm. Buxoro kashtachilik maktabi kashta na'munasi.

Shahrisabz – Iroqi kashtasi. Shahrisabzning “iroqi” usuli eng murakkab turlardan biri hisoblanadi. Bu texnikada ip mato ustiga qo'yiladi va maxsus bosma tikuv orqali mahkamlanadi. Naqshlar keng polosali va jozibador bo'lib, ko'pincha uy-ro'zg'or buyumlarida qo'llaniladi.



2-rasm. Shahrisabz -Iroqi kashtasi.

Farg'ona vodiysi maktabi. Farg'ona kashtalarining nozikligi, ranglarning uyg'unligi, mayda gullar va nafis chiziqlari bilan mashhur. Ayniqsa Marg'ilon va Qo'qon ustalari yaratgan kashtalar dekorativ ahamiyati bilan ajralib turadi. Farg'ona vodiysi O'zbekistonning eng qadimiy hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib, bu hududda asrlar davomida o'ziga xos kashtachilik, to'qimachilik, zargarlik, kulolchilik, kandakorlik kabi san'at turlari rivojlangan. Ayniqsa, Farg'ona kashtachilik maktabi o'zining nozik ishlanmalari, rang-barang kompozitsiyalari va nafis uslubi bilan respublikadagi eng rivojlangan an'analardan biri hisoblanadi.



Samarqand va Surxondaryo maktablari.

Samarqand – O'rta Osiyodagi qadimiy madaniyat markazlaridan biri bo'lib, bu hududda kashtachilik san'ati juda boy va o'ziga xos maktab sifatida shakllangan. Samarqand kashtalari nafisligi, monumental kompozitsiyasi va murakkab o'simliksimon naqshlari bilan mashhur. Bu hududlarda geometrik naqshlar, o'simliksimon shakllar va marosimiy ramziy belgilar ustunlik qiladi. Ranglar yorqin bo'lib, turmush tarzining shodiyona ruhini aks ettiradi.



Kashtachilikning ijtimoiy-madaniy ahamiyati. Kashtalar faqat bezak uchun emas, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, hayotiy qarashlarini ham ifodalaydi. Naqshlar ko'pincha: farovonlik, baraka, himoya, baxt, oilaviy totuvli ramzlariga ega bo'lgan. Kashtalar to'y marosimlari, bayram liboslari, kelin sarpo, bolalar kiyimlari va uy-ro'zg'or buyumlarining ajralmas qismi sifatida ahamiyat kasb etgan.

Zamonaviy kashtachilik rivoji. XX–XXI asrlarda kashtachilik yangi bosqichga ko'tarildi. An'anaviy uslublar zamonaviy moda, tekstil dizayni va texnologiyalar bilan uyg'unlashdi.

O'zbek milliy kashtadozlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bolib, u xalqning oz turmushini gozal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda rozgor bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi.

Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. Ozbek chevar ustalari qollari bilan tikilgan kirpich, sozana, zardevor, gulkorpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Fargona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san'at muzeylarida kop namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Kashtado'zlik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san'atning ta'siri katta bo'lgan. XI asrga oid ingliz kashtalarida jang lavhalari aks ettirilgan. XII asrga mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona san'atining ta'siri ko'zga tashlanadi. Xitoyda XIV asrdan "syuxua" (ignali tasvir) nomi bilan mashhur bo'lgan kashtali namoyonlar uslub jihatdan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqin.

Yevropada Kashtado'zlik Uyg'onish davrida yuqori pog'onaga ko'tarildi. Davrning buyuk rassomlari (Perujino, Bottichelli) kabilar kashtado'zlar uchun andazalar tayyorlab berishgan, bu esa kashtalarning badiiyligini oshirgan. Kashtado'zlikda

qimmatbaho toshlardan ham foydalanilgan, ip, jun, ipak, zar va kumush suvi berilgan iplar ishlatilgan. XVIII asr da Yevropada aslzodalar kiyimini bezashda kashtalardan foydalanib tayyorlangan Kashtado'zlik buyumlari keng tarqalgan.

XIV-XV asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar Kashtado'zlikning qadimdan keng rivojlanganini ko'rsatadi. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod "Zafarnoma" qo'lyozmasiga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan.

Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi o'zbek kashtado'zlarining katta san'atidan dalolat beradi. Masalan Nurota, Buxoro, Samarqand Kashtado'zlik mahsulotlari ko'proq yo'rma chok bilan, Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma chok bilan tikilgan.

Turli xil kashta turlarini tahlil qilish natijalariga ko'ra ayollar zamonaviy liboslari loyihasini taklif etishda Farg'ona kashtachilik namunalaridan foydalanildi.



1-rasm. Zamonaviy ayollar liboslarida kashtachilk namunasi asosidagi eskiz loyihalash

Xulosa

Kashtachilik san'ati insoniyatning ko'p asrlik madaniy merosining muhim qismi bo'lib, o'zbek xalqining milliy o'zligini ifodalaydigan bebaho an'anadir. Bugungi kunda bu san'atning tiklanishi va zamonaviy shaklda rivojlanishi xalq amaliy san'ati maktablarining yo'qolmasligini ta'minlaydi va uni kelajak avlodga yetkazadi.

Kashtachilik nafaqat estetik zavq ulashadi, balki milliy madaniyatning davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy ko'prik vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Jalolova D.F. Tikuv buyumlarini tayyorlashda kreativ loyihalash. O'quv qo'llanma. BUXORO - 2021 "DURDONA" NASHRIYOTI
2. N.Sodiqova, - O'zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar- T.: G.G'ulom- 2006.- 192 b.
- 3.B. Baymetov, G. Alimova "Maxsus rasm". - Toshkent: "Iqtisod-moliya" 2010.И.А.Розенсон. Основы теории дизайна - СПб.; Питер 2007
- 4.D. Jabborova "Zardo'zlik texnologiyasi". - Toshkent: G.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004.
- 5.S.S. Bulatov, P.P. SHabaratov, M.A. Rasulov. Naqqoshlik. O'quv qo'llanma. "IQTISOD-MOLIYA", 2010